Jinoyat kodeksining 9-moddasida ayb uchun javobgarlik, ya'ni shaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchungina javobgar bo'lishi prinsipi belgilangan.

A. Toshpulatovning (2023) fikricha, "Konstitutsiyamizning 26-moddasida jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxslarning jinoyat ishi sudda qonunda belgilangan tartibda, oshkora muhokama qilinishi va uning aybi isbotlanmaguncha aybdor hisoblanmasligi aks ettirilgan bo'lib, bu prinsip nafaqat jinoyat huquqida, balki jinoyat-protsessual huquqida ham aybsizlik prezumpsiyasi sifatida mavjuddir".

Ayb – bu jinoyat subyektining sodir etgan yoki sodir etilishi mumkin bo'lgan harakatga nisbatan intellektual va irodaviy munosabatidir. Bu nuqtayi nazardan ayb faqat ruhiy munosabat sifatida qabul qilinib, subyektning o'ziga xos bahosi yoki muayyan vaziyatdagi shaxsiy xatti-harakatlariga nisbatan o'ziga bergan bahosi sifatida tushuniladi (Kudryavtsev et al., 2005).

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 20-22-moddalarida ayb aynan shu tarzda bayon etilgan bo'lib, unda qasd va ehtiyotsizlik shakllari, shuningdek, ularning turlari – to'g'ri va egri qasd, ehtiyotsizlik va uning turlari o'z-o'ziga ishonish hamda beparvolik ajratib ko'rsatilgan. Ayb tushunchasiga bunday ruhiy yondashuv jinoyat huquqi ilm-fanida eng ko'p tarqalgan bo'lib, u o'z ildizlarini Gegel tomonidan taklif etilgan aybning falsafiy tushunchasiga asoslanadi. Unga ko'ra, ayb – boshqa subyektlarning uning ha-

rakatlariga bergan tashqi bahosi emas, balki avvalo, shaxsning o'ziga xos irodasi va ongi hisoblanadi. Biroq Gegel (1990) ta'kidlaganidek, shaxsning o'z aybini tan olishi ham uning jinoyat qilganligi uchun javobgar bo'lishini anglatmaydi.

Aynan shu Gegel falsafasidan aybning qasd shaklining ruhiy jihatiga oid barcha zamonaviy qarashlar shakllangan. Ya'ni ayb qilmish oqibatida jamoat uchun xavfli oqibatlarining sodir bo'lishini yoki sodir bo'lishi mumkinligini anglash, bunday oqibatlarni keltirib chiqarishga irodaviy istak yoki ularning yuzaga kelishini xohlash sifatida baholalanadi.

Boshqa tomondan ayb – jinoyat tarkibi mazmunining ajralmas qismi yoki jinoyat tarkibi subyektiv tomonining elementi hisoblanadi. Bu nuqtayi nazardan ayb yuqorida ko'rib chiqilgan ruhiy jihat bilan ko'p jihatdan umumiylikka ega, chunki u ham xuddi shu shakllar – qasd va ehtiyotsizlik asosida belgilanadi. Biroq bu yerda aybni jinoyatni sodir etgan yoki uni sodir etish niyatida bo'lgan shaxsning o'zi emas, balki qonun chiqaruvchi baholaydi va bu baholash shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun zaruriy shart sifatida ko'riladi (Golubev, 2013). Bunda ayb jinoyat qonunining Maxsus qismi normalarida o'zining aniq ifodasini topadi.

Shu bilan birga, paradoks shundan iboratki, subyektning harakatini "tashqi" baholash uchun uning o'z harakatlariga bo'lgan "ichki" munosabatini baholash mezonlaridan foydalaniladi. Bu "tashqi" bahoning muayyan darajada ideallashtirilishiga olib keladi. Ya'ni normal, qonunga itoatkor va huquqiy ongga ega subyekt o'z harakatlarini qanday baholashi kerakligi, uning qilmishiga nisbatan tashqi bahoning asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi.

Masalan, o'g'ri o'g'irlikni sodir etayotganda uning harakatlari qonunning u yoki bu normasiga qay darajada zid ekanligi har doim ham o'ylab o'tirmaydi. U hatto, o'zining voyaga yetmaganligi yoki boshqa holatlar sababli, ushbu harakatining qonunga zid-

ligi yoki uning uchun qonunda javogarlilik belgilanganligi haqida bexabar bo'lishi ham mumkin. Bunday holda, ya'ni qilmishi uchun javobgarlik mavjudligi haqida xabardor emasligi yoki uning oqibatlarini anglamaganligi jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishiga olib keladimi? Chunki u o'zini aybdor deb hisoblamasligi mumkin va o'z harakatlarini odatiy *modus vivendi*¹ (hayot tarzi) doirasida, shuningdek, uning uchun xos bo'lgan *modus operandi*² (harakat usuli) asosida sodir etgan bo'ladi-ku? Albatta, bunday holatda, shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin emas, chunki qonunni bilmaslik, shuningdek, uni majburiy qoida sifatida qabul qilmaslik javobgarlikdan ozod qilmaydi. Shu sababli, yuqorida qayd etilgan harakatga nisbatan (o'z qilmishini to'la anglamagan holda o'g'irlik qilgan shaxsning) "ichki bahoning" idealashtirilishini jinoiy jazolanadigan harakatga nisbatan "tashqi baholash" mezoni sifatida qabul qilish mumkin.

Shu bilan birgalikda, ayb subyektiv tomonning yagona elementi emas, ko'pchilik jinoyat tarkiblari uchun subyektiv tomonning fakultativ elementlari sifatida jinoyatning motivi va maqsadi ham muhim ahamiyat kasb etadi (Zotova, 2021).

Motiv va maqsadni aniqlash subyektning aybini, ya'ni uning o'z qilmishiga nisbatan ruhiy munosabatini tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi. Agar Jinoyat kodeksining Maxsus qismida muayyan jinoyat tarkiblarida motiv yoki maqsad to'g'risida to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilmagan bo'lsa, ular fakultativ belgilar sifatida baholanadi.

Ayrim rossiyalik olimlar, jumladan, N.A. Chernova (2016), jinoyatning subyektiv tomonida emotsional elementlarni ham ajratib ko'rsatadilar. Bu elementlar yuqorida tasvirlangan aybning ruhiy elementlari – ong

va iroda bilan yaqin bog'liq bo'lsa-da, ularni mustaqil tarkibiy qism sifatida qaraydilar va isbotlanishi lozim bo'lgan elementlar sifatida faqat ikki jinoyat tarkibida mustahkamlangan, deb hisoblaydilar. Uning fikricha, RF Jinoyat kodeksining 107-moddasida javobgarlik belgilangan "Affekt holatida sodir etilgan qotillik" va 113-moddasi "Affekt holatida sog'liqqa og'ir yoki o'rtacha og'ir zarar yetkazish" jinoyatlarida affekt, ya'ni kuchli ruhiy hayajon subyektiv tomonning emotsiyaviy tarkibiy qismi jinoyat tarkibini shakllantiruvchi element sifatida qaralishi lozim.

K. Hakimov (2022) fikricha, o'zida vaziyatga bog'liq ravishda vujudga kelish xususiyatini kasb etuvchi kuchli ruhiy hayajonlanish (affekt) holatida sodir etilgan jinoyatlarda aybdorning o'ziga xos ijtimoiy xavflilik darajasini inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Garchi kuchli ruhiy hayajonlanish (affekt) holatida shaxsning xulq-atvori o'zi uchun odatdagidek bo'lmasa-da, unda aybdor shaxsining o'ziga xos jihatlari va aniq ijtimoiy-psixologik sifatlari namoyon bo'ladi.

Uning fikricha, affekt (kuchli ruhiy hayajonlanish) holatida sodir etilgan jinoyatni qonun bilan muhofazalanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazuvchi ijtimoiy xavfli qilmish sifatida emas, balki jinoyatni sodir etishga olib keluvchi bir qancha sabablarga ega bo'lgan sotsial hodisa sifatida baholaganimizda, ko'pchilik holatlarda aybdor ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishni to'g'ridan to'g'ri maqsad qilmaganligiga va uni o'zidagi vaziyatga nisbatan salbiy ta'sirini to'xtatishga yetarli darajada kuch topa olmaganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Shu sababdan ham, affekt jinoyat qonuni-da javobgarlikni yengillashtiruvchi holat sifatida (JK 98-, 106-moddalari)da baholanadi.

¹ Modus vivendi (lot. - hayot tarzi, kun kechirish usuli) diplomatik termin bo'lib, kelishuv asosida vaqtinchalik hayot tarzi bo'lib, keyinchalik doimiy xususiyat kasb etadigan kelishuv tuzilguncha amal qiladigan sharoitga nisbatan qo'llaniladi. Ushbu matnda esa, ma'lum bir shaxsning ma'lum bir hayotiy vaziyatda yashab qolish tarzi sifatida keltirilmoqda.

² Modus operandi (lot. - harakat usuli). Kriminologiyada jinoyatchi shaxsining kriminologik portretini yaratishda qo'llaniladi va odatda biror-bir jinoyatni sodir qilgan gumon qilinuvchini aniqlash va ushlashda imkon beradi.

Aybning uchinchi jihati – aybdorlik bo'lib, u nafaqat subyektiv, balki obyektiv omillarni ham o'z ichiga oladi. Jinoyat qonunchiligi aynan shu omillar bilan jinoiy javobgarlik yuzaga kelishini bog'laydi, ya'ni jinoyat qonun bilan taqiqlangan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etish uchun javobgarlikni belgilaydi.

JK 9-moddasida belgilangan ayb uchun javobgarlik prinsipi mazmuniga qarasak, qonun chiqaruvchi jinoiy javobgarlikni subyektiv o'z aybini ruhiy anglashi yoki huquqni qo'llovchi organ tomonidan muayyan harakatda aniq bir ayb shaklini belgilash bilan bog'lamaydi.

JK 9-moddasida shaxsning jinoyat sodir etganligi uchun aybdorligi umumiy tarzda belgilanganligini ko'rish mumkin. Bu holda, faqat subyektiv elementlarni aniqlash bilan cheklanib qolmay, balki jinoyat tarkibining obyektiv elementlarini ham belgilash talab etiladi. Bular qatoriga obyekt, obyektiv tomon, zarur hollarda esa – yuzaga kelgan oqibatlar yoki obyektiv dunyoda sodir bo'lgan o'zgarishlar kiradi. Bunda faqat jinoyat sodir etgan shaxsning shaxsiy his-tuyg'ulari yoki huquqni qo'llovchi organ tomonidan bunday harakatga berilgan subyektiv baholar bilan cheklanish mumkin emas.

Masalan, shaxs o'zgalar mulkini talon-toraj qilganida, bu holat bo'yicha ma'lum bir irodaviy va ongli kechinmalarni boshdan kechirishi mumkin. Huquqni qo'llovchi organ bunday talon-toraj qasddan sodir etilgan deb baholashi ehtimoli bor. Bu xulosa subyektiv harakatlarining tashqi ko'rinishiga asoslanib chiqariladi. Biroq, agar bunday talon-toraj ahamiyatsiz bo'lsa, ya'ni qonunda jinoyat deb hisoblanishi uchun belgilangan chegaradan past bo'lsa, shaxsni jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topish mutlaqo noto'g'ri bo'ladi. Bunday holat ma'muriy huquqbuzarlik sifatida baholanadi (Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 61-moddasi).

Shu bilan birga, tashqi ko'rinishidan talon-torajga o'xshagan qilmish, jinoyat qonunida ko'zda tutilgan ayb shakllarisiz sodir

etilgan bo'lsa, uni jinoyat sifatida baholash mumkin emas. Ya'ni obyektiv ayblov (aybdorlikni faqat tashqi harakat asosida belgilash) qabul qilinmaydi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirganda, ayb va aybdorlik tushunchalari aynan bir xil emasligini ta'kidlash lozim. Ayb aybdorlik tushunchasining tarkibiy qismi bo'lib, u qonun bilan belgilangan obyektiv va subyektiv elementlar yig'indisi natijasida shakllanadi. Shu bilan birga, ayb obyektiv ayblov imkoniyatini istisno etuvchi zaruriy element hisoblanadi.

Ayb jinoyat huquqida ikki jihatdan – ruhiy va mazmun jihatidan namoyon bo'ladi. Ruhiy jihat – subyektiv o'z harakatlarini "qanday bo'lishi kerak" deb qabul qilishi, ya'ni aybni ideallashtirilgan tarzda anglashi bilan bog'liq. Mazmuniy jihati esa, qonun chiqaruvchi va huquqni qo'llovchi organ tomonidan subyektiv tomonning "tashqi" baholanishiga taalluqli. Ayb subyektiv tomonning zaruriy elementi hisoblanadi, biroq u yagona element emas. Subyektiv tomonga motiv, maqsadlar, shuningdek, hissiyot va emotsional elementlar ham kirishi mumkin. Qonun chiqaruvchi ularni aybni og'irlashtiruvchi yoki yengillashtiruvchi holatlar sifatida e'tiborga olishi mumkin.

A. Toshpulatov (2023) ta'kidlaganidek, "Xorijiy davlatlar qonunchiligida jinoyat tarkibi sifatida ayb tushunchasi va aybdorlik masalasi kengroq talqin qilinganligini kuza-tishimiz mumkin. A. Jalinskiy va A. Rerixtlar (2001) Germaniya jinoyat huquqini tahlil qilish asosida jinoyat tushunchasini uch belgidan, ya'ni jinoyat tarkibining mavjudligi (obyektiv va subyektiv belgilarning mavjudligi), qilmishni jinoyat deb topishni istisno qiladigan holatlarning yo'qligi va jinoyatning mustaqil belgisi sifatida aybdan iboratligini ko'rsatishgan. Ularning fikricha, Germaniya jinoyat huquqida aybdorlik va huquqqa xiloflik o'rtasida jiddiy farq mavjud bo'lib, qilmish huquqqa xilof, ammo aybsiz deb topilishiga asos bo'ladi. Bundan tashqari, ularda ayb va ehtiyotsizlik ikki xil tushuncha sifatida qaraladi.

Jinoyat qonunida aybdorlik prinsipi (“nula poena sine culpa”) huquqiy davlat prinsipi elementlaridan bo‘lib, Germaniyada konstitutsiyaviy maqomga ega. Germaniya Jinoyat kodeksining (2023-yil may) 46-moddasiga ko‘ra, jinoyat sodir etgan shaxsning aybi jazo tayinlashning asosi hisoblanadi. Jazoni belgilashda uning aybdorning kelajakdagi ijtimoiy hayotiga ta’siri inobatga olinadi.

Jazo tayinlashda jinoyat sodir etgan shaxsning foydasiga va zarariga ta’sir etuvchi holatlar, shaxsning holatlari hisobga olinadi. Bunda quyidagilarga alohida e’tibor qaratiladi:

Jinoyatchini harakatga undovchi sabab va maqsad, undan kelib chiqadigan fikrlash tarzi, jinoyat sodir etishdagi irodasi, majburiyatlarni buzish darajasi, jinoyatni amalga oshirish usuli, jinoyat sodir etilgunga qadar ayblanuvchining turmush tarzi, uning shaxsiy va moddiy ahvoli, jinoyatdan keyingi xulq-atvori (yetkazilgan zararni qoplash va jabrlanuvchi bilan yarashish) (Germaniya, 2023-yil may).

Ko‘rinib turibdiki, Germaniya jinoyat qonunchiligida shaxsni jazolash uchun asosiy mezon aybning mavjudligini aniqlash hisoblanadi” (Toshpulatov, 2023).

Biz ham A. Toshpo‘latovning fikrlarini qo‘llab-quvvatlab, jinoyat huquqiga oid adabiyotlarda, shuningdek, huquqni qo‘llash amaliyotida asosiy e’tibor jinoyat tarkibi (obyekt, obyektiv tomon, subyekt va subyektiv tomon) mavjudligini aniqlashga qaratilganini, ammo shaxsning nima uchun jinoyat sodir etganligi, uni jinoyatga undagan sabablar, jinoyat sodir etishiga olib kelgan vaziyatlar, tayinlanadigan jazoning aybdorning tuzalishi va keyingi hayotiga qanday ta’siri masalalariga yetarlicha e’tibor berilmaganligini ta’kidlaymiz.

Huquqni qo‘llash amaliyoti nuqtayi nazaridan ayb tushunchasi qanchalik muhim bo‘lsa, shaxsning o‘z qilmishiga nisbatan aybdorlik munosabatini tashkil etuvchi unsurlar va ularning jinoyat ishi bo‘yicha majburiy

ravishda isbotlanishi zarurligi masalasi ham shunchalik dolzarbdir. Shuningdek, qaysi subyektiv belgilar barcha hollarda aniqlanishi shart va qaysilari faqat muayyan vaziyatlarda o‘rganilishi lozimligini belgilash ham muhim masala hisoblanadi.

Qonun chiqaruvchi jinoyat qonunining 20-moddasida har qanday ijtimoiy xavfli qilmish va undan kelib chiqqan oqibatlarga nisbatan aybning qasddan yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilganligini aniqlash zarurligini ta’kidlaydi. Jinoyat kodeksining Umumiy qismida jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta’sir ko‘rsatuvchi aybning ruhiy holatini belgilaydigan bir qator ruhiy jarayonlar ko‘rsatib o‘tilgan. Masalan, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish (26-modda), zaruriy mudofaa (37-modda), jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo‘rqitish natijasida jinoyat sodir etish (411-modda), chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish (55-modda), amalda pushaymonlik (571-modda), aybga iqrorlik (572-modda) va boshqalar.

Bundan tashqari, Maxsus qismdagi bir qator moddalarda jinoyat tarkibi tavsifida kvalifikatsiyalovchi belgi sifatida motiv, maqsad va hissiyotlarda namoyon bo‘ladigan subyektiv belgilar nazarda tutilgan. Masalan, kuchli ruhiy hayajonlanish (98- va 106-moddalar), g‘arazgo‘ylik yoki boshqa past niyatlarda farzandlikka olish sirini oshkor qilish (125-modda), pornografik mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida tayyorlash (130-modda) va boshqalar.

Jinoyat huquqiga oid adabiyotlarda shaxsning o‘z qilmishiga nisbatan aybdorlik hissiga oid uchta asosiy yondashuvlar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin.

Birinchi yo‘nalishda ayb (aybdorlik) muayyan jinoyatning subyektiv va obyektiv belgilari yig‘indisi sifatida talqin etiladi. Bu qarash sobiq Sovet Ittifoqi davri olimlarida keng tarqalgan bo‘lib, bir tomondan, obyektiv ayblovni keskin tanqid qilishdan, boshqa tomondan esa aybni javobgarlikning asosi deb belgilashdan kelib chiqadi (mamlaka-

timiz Jinoyat kodeksining 9-moddasidagi ayb uchun javobgarlik prinsipi ham aynan shu yondashuvga tayanadi). Shuningdek, bu yondashuv aybning ijtimoiy mohiyatini aniqlashga intilishga asoslanadi. Bunda, ayb aybdorlik sinonimi sifatida qaralsa-da, shaxsning ongida sodir bo'ladigan barcha jarayonlardan kengroq tushuncha sifatida tahlil qilingan.

Ikkinchi yondashuvda (asosan 1990–2000-yillarda) birinchi yondashuv tanqid qilinib, ayb va aybdorlik tushunchalari bir-biriga aralashib ketganligi, natijada ikkita “ayb” yuzaga kelganligi ta'kidlanadi. Bundan tashqari, aybni bunday keng talqin qilish huquqni qo'llash faoliyatida qiyinchiliklar keltirib chiqarishi, unda obyektiv belgilarni ikki marta – ham jinoyat tarkibining alohida elementi sifatida, ham aybning bir qismi sifatida aniqlash zarurligi ko'rsatib o'tiladi. Ba'zi olimlar jinoyatning subyektiv tomoni va ayb tushunchalarini aynan bir xil deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, har ikkisi ham jinoyat sodir etish bilan bog'liq barcha ruhiy jarayonlarni qamrab oladi. Bu fikr odatda quyidagicha asoslantiriladi: “Qonun chiqaruvchi motiv, maqsad va his-tuyg'ularni ayb shakllarining ta'rifiga kiritmagan holda, har qanday inson xatti-harakatlari, jumladan, jinoiy harakatlar ham, ruhiy faoliyatning ushbu tarkibiy qismlariga doimo ega ekanligini nazarda tutadi” (Voroshilin & Kriger, 1978).

A.I. Rarog (1987) fikricha, “Aybni jinoyatning subyektiv tomoni deb tushunish, qonunchilikda belgilangan ayb tushunchasi mos kelmaydi, ayb tushunchasini noaniqlashtiradi, uning ham yuridik tavsifi, ham psixologik mazmuni nuqtayi nazaridan chegaralarini belgilashni qiyinlashtiradi, motiv va maqsadning aybdagi aniq o'rnini belgilamaydi, ayb shaklini uning mazmunidan ajratishga yo'l qo'yadi, bu esa konseptual xatolarga olib kelishi mumkin, asossiz ravishda ayb mazmuniga motiv, maqsad, affekt, his-tuyg'ular kabi psixologik kategoriyalarni kiritadi, holbuki, bular aybdor shaxsning jinoiy harakatga nis-

batan ruhiy munosabatining to'g'ridan to'g'ri elementlari emas”.

Hozirgi vaqtda adabiyotlarda keng tarqalgan yondashuvga ko'ra, ayb har qanday jinoyat tarkibining zaruriy belgisi hisoblansa-da, ammo motiv, maqsad va ba'zan hissiyotni o'z ichiga olgan jinoyat subyektiv tomonining bir elementidir. Bunda motiv, maqsad va hissiyotlar fakultativ belgilar bo'lib, faqat ayrim jinoyatlar uchun zaruriy belgilar bo'lishi mumkin.

Bu yerda jinoyat sodir etishga undagan turtki (pobujdeniye) odatda motivning sinonimi sifatida ko'riladi. Ammo psixologiya fani nuqtayi nazaridan bu noto'g'ri, chunki turtki hissiyot va ehtiyojlardan iborat bo'lib, ular ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin va motiv shakllanishidan oldingi holat sifatida qaraladi. Motiv esa muayyan qaror qabul qilish va uni asoslash uchun zarur psixologik sharoit sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, hissiyot, affekt subyektiv tomon elementlariga kirmaydi, balki ular jinoyatchi shaxsini tavsiflovchi belgilar hisoblanadi (Rarog, 2008), degan qarashlarga ham qo'shilib bo'lmaydi.

Hissiy jarayonlar yoshga doir ruhiy barqarorlikni aniqlashda (jinoiy javobgarlik uchun yoshga doir aqli rasolik) muhim ahamiyat kasb etadi va bu ma'noda ular ko'proq subyektning xususiyati sifatida qaralishi mumkin. Ya'ni muayyan shaxsga xos his-tuyg'ular uning jahldor yoki mehribon ekanligini ko'rsatuvchi belgilari sifatida baholanishi mumkin.

Biroq, faol rivojlanib, muayyan xatti-harakatda namoyon bo'ladigan hissiyotlar, ayniqsa, affekt, jinoyatchi shaxsining tub mohiyatini aks ettirmaydi, chunki ular uning odatiy xulq-atvoriga mutlaqo xos bo'lmasligi mumkin. Ular aybdor shaxsning ruhiy faoliyatidagi aqliy va irodaviy jarayonlarga ma'lum bir ta'sir ko'rsatib, jinoyatning subyektiv tomoni belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, jinoyat subyektini va ayb o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ham

ta'kidlash joiz. Chunki bu ikkala tushuncha ham subyektiv-obyektiv xususiyatga ega. Jinoyat subyektining majburiy belgilari, xuddi aybning majburiy tarkibiy qismlari singari, bir tomondan, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsning ongli-irodaviy ichki xususiyatlarini tavsiflaydi. Boshqa tomondan esa, ular jamiyat va davlat tomonidan majburiy ijtimoiy-huquqiy baholashga sabab bo'ladi (Veklenko, 2003).

Boshqa jihatdan qaraydigan bo'lsak, shaxsning aybini uning motiv va maqsadlarini bilmasdan turib aniqlab bo'lmaydi va bu qonunchilikda ham o'z aksini topgan. Jumladan, Jinoyat-protsessual kodeksining 82-moddasida ayblash va hukm qilish asoslaridan biri sifatida jinoyatning to'g'ri yoki egri qasd bilan yoxud beparvolik yoki o'z-o'ziga ishonish oqibatida sodir etilganligi, jinoyatning sabablari va maqsadlari isbotlangan bo'lishi kerakligi belgilangan.

Ehtiyotsizlik tufayli sodir etilgan jinoyatlarda, odatda, motiv va maqsadni aniqlash talab qilinmaydi. Biroq ba'zi ehtiyotsizlikdan sodir etilgan jinoyatlarda ham motiv va maqsadni aniqlash shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Masalan, shaxs o'zini himoya qilish maqsadida quroldan o'q uzganligi yoki shovqin solayotgan qo'shnilarini qo'rqitish uchun o'q otganligi natijasida ehtiyotsizlikdan kelib chiqqan o'lim holatlarida motiv va maqsad aniqlanishi shart bo'ladi.

Xulosa

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, ayb uchun javobgarlik prinsipi, avvalo, jinoyat subyekti bilan chambarchas bog'liqdir. Ayb uchun javobgarlik prinsipi va jinoyat subyektining o'zaro bog'liqligi quyidagilarda namoyon bo'ladi, ushbu prinsipga ko'ra, shaxs faqat o'zining aybi bilan sodir etgan jinoyati uchungina javobgarlikka tortilishi mumkin. Bu holat jinoyat subyekti tushunchasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, jinoiy

javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan shaxsning huquqiy, psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Ayb uchun javobgarlik prinsipi va jinoyat subyektining o'zaro bog'liqligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- jinoiy javobgarlik faqat aybli ravishda sodir etilgan jinoyat uchun kelib chiqadi;

- ayb uchun javobgarlik prinsipi qonunchilikda shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun aybdorlikni isbotlash majburiyatini belgilaydi;

- obyektiv ayblovga yo'l qo'yilmaydi;

- jinoiy javobgarlikni belgilash uchun shaxsning jinoiy qilmishga nisbatan ongli va irodaviy munosabati isbotlanishi lozim;

- ayb shaxsning o'z harakatlariga nisbatan ichki ruhiy munosabatidir. U ijtimoiy xavfli qilmish va uning oqibatlarini anglash, shuningdek, bu oqibatlarni keltirib chiqarish istagi yoki bunday holatga yo'l qo'yish irodasi bilan bog'liq;

- jinoyat subyekti aybdorlikning asosiy tashuvchisi bo'lib, uning jinoiy javobgarligi aynan aybning shakli va mazmuniga bog'liq holda belgilanadi.

Jinoyat huquqida shaxs jinoyat subyekti deb tan olinishi uchun u quyidagi asosiy belgilarga ega bo'lishi lozim: jismoniy shaxs bo'lishi; javobgarlik yoshiga yetgan bo'lishi va aqli raso bo'lishi.

Ba'zi jinoyat tarkiblarida motiv va maqsad subyektiv tomonning zaruriy elementlaridan biri hisoblanadi.

Ayb uchun javobgarlik prinsipi va jinoyat subyekti o'rtasidagi bog'liqlik jismoniy shaxs ekanligi, yosh, aqli rasoligi va ayb shakli kabi mezonlar orqali namoyon bo'ladi. Jinoyat huquqi subyektiv va obyektiv belgilarni o'zaro uzviy bog'liq holda baholashni talab etadi. Shu sababli shaxsning aybini aniqlashda uning jinoiy xatti-harakatga nisbatan ruhiy munosabati, maqsadi va motivlari ham inobatga olinadi.

REFERENCES

1. Chernova, N. A. (2016). *Emotsii v strukture sub'yektivnoy storony prestupleniya* [Emotions in the structure of the subjective side of a crime]. *Sovremennyy yurist [Modern Lawyer]*, 2, 108–119.
2. Gegel, F. (1990). *Filosofiya prava* [Philosophy of Law]. USSR Academy of Sciences, Institute of Philosophy (p. 161). Moscow: Mysl Publ.
3. Golubev, N. A. (2013). K voprosu o vine v ugovnom prave [On the issue of guilt in criminal law]. *Yuridicheskaya nauka i praktika: Vestnik Nizhegorodskoy akademii MVD Rossii [Legal Science and Practice: Bulletin of the Nizhny Novgorod Academy of the Ministry of Internal Affairs of Russia]*, 21. <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-vine-v-ugolovnom-prave>
4. Golovnenkov, P. V. (2021). *Ugolovnyy kodeks Federativnoy Respubliki Germanii. Nauchno-prakticheskiy kommentariy i perevod teksta zakona* [Criminal Code of the Federal Republic of Germany. A scientific and practical commentary and translation of the text of the law]. University of Potsdam Press, Germany. https://www.uni-potsdam.de/fileadmin/projects/ls-hellmann/Forschungsstelle_Russisches_Recht/Neuaufgabe_der_kommentierten_StGB-Übersetzung_von_Pavel_Golovnenkov.pdf
5. Hakimov, K. (2022, August). Affekt holatida sodir etilgan jinoyatlarning kriminologik tavsifi va jinoyatchi shaxsini tushunish muammolari [Criminological description of crimes committed in a state of affect and problems of understanding the identity of the criminal]. *Obshchestvo i innovatsii [Society and Innovation]*, 3 (3), 31–42. https://www.researchgate.net/publication/362419169_Affekt_olatida_sodir_etilgan_zinoatlarning_kriminologik_tavsifi_va_zinoatci_sahsini_tusunis_muammolari
6. Kudryavtsev, N. I., Malinin, V. N., Pavlov, V. B., Korzhanskiy V. G., et al. (2005). *Entsiklopediya ugovnogo prava: Sostav prestupleniya* [Encyclopedia of Criminal Law: Elements of a Crime] (4, 796). St. Petersburg: Professor Malinin Publ.
7. Korzhanskiy, N. I., Kudryavtsev, V. N., Malinin, V. B., Pavlov, V. G. et al. (2005). *Entsiklopediya ugovnogo prava: Elementy prestupleniya* [Encyclopedia of Criminal Law: Elements of Crime] (4, 796). St. Petersburg Professor Malinin Publ.
8. Rarog, A. I. (1987). *Vina v sovetskom ugovnom prave* [Guilt in Soviet criminal law] (186). Saratov: Saratov University Publ.
9. Rarog, A. I. (2008). *Spravochnik sud'i po klassifikatsii prestupleniy* [Judge's Handbook of Crime Classification] (227). Moscow: TK Welby; Prospect Publ.
10. Toshpulatov A.I. (2023) *Jinoyat huquqi prinsiplari: nazariya va amaliyot* [Principles of Criminal Law: Theory and Practice]. [Doctor of Law Dissertation, Tashkent State University of Law] (147).
11. Ugolovnyy kodeks Federativnoy Respubliki Germanii (2023, May). [Criminal Code of the Federal Republic of Germany]. <https://constitutions.ru/?p=24969>
12. Voroshilin, E. V. & Kriger, G. A. (1978). *Sub'yektivnaya storona prestupleniya* [The subjective side of the crime] (76, 11). Moscow: Moscow University Publ.
13. Veklenko, S. V. (2003). *Vinovnoe vmenenie v ugovnom prave* [Guilty imputation in criminal law]. [Doctoral Dissertation] (354). Omsk.
14. Zhalinskiy, A. & Rorikht, A. (2001). *Vvedenie v nemetskoe pravo* [Introduction to German law] (594). Moscow.
15. Zotova, A. A. (2021). Znachenie motiva i tseli v otsenke sub'yektivnoy storony prestupleniya v sovremennom ugovnom prave [The importance of motive and purpose in assessing the subjective side of a crime in modern criminal law]. *Novizna. Eksperiment. Traditsii [Novelty. Experiment. Traditions]*, 1. <https://cyberleninka.ru/article/n/znachenie-motiva-i-tseli-v-otsenke-subektivnoy-storony-prestupleniya-v-sovremennom-ugolovnom-prave/>

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-YIL 5-SON

VOLUME 5 / ISSUE 5 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.5.